



## XITOYTILIDA [A 跟GĒN B....一样YÍ YÀNG] KONSTRUKSIYASI ORQALI DARAJA TENGLIGINING IFODALANISHI

*Maxamadtoirova Adiba Botir qizi,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi*

**Kalit so'zlar:** qiyos, taqqos, o'xshatish, qiyosiy daraja, old ko'makchi, qiyos obyekt, qiyos subyekti, konstruksiya.

**Kirish.** O'zbek tilshunosi G'.A.Abdurahmonov, rus tilshunosi B.И.Горелов va xitoy tilshunosi 刘月花Liú Yuèhuā fikrlariga tayanib ularni umumiy lashtirgan holda xitoy tilidagi qiyoslash mazmunidagi gaplarni ikkita katta guruhga ajratamiz.

Birinchi guruh, sifat va darajalarning o'zaro farqini, baland yoki pastligini ifodalovchi sof qiyoslash, taqqoslash mazmuniga ega bo'lgan konstruksiyalar guruhi bo'lib, ushbu guruhga quyidagi konstruksiyalarni kiritamiz:

– 比 *bǐ* old ko'makchisi ishtirokida;  
– 一天比一天 *yìtiān bǐ yìtiān*, 一年比一年 *yìnián bǐ yìnián*, 一次比一次 *yíci bǐ yíci* ishtirokida;

– 不如 *bùrú*, 不比 *bùbǐ*, 没有 *meiyou* ishtirokida;

– 越来越 *yuèlái yuè* ishtirokidagi konstruksiyalarni kiritamiz.

Ikkinchi guruh, narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligi, tengligini ifodalovchi o'xshatish mazmuniga ega bo'lgan konstruksiyalar guruhi bo'lib, ushbu guruhga quyidagi konstruksiyalarni kiritamiz:

– 跟 *gēn*.... 一样 *yíyàng* ishtirokida;  
– 跟 *gēn*.... 相同 *xiāngtóng*; 跟 *gēn*.... 相似 *xiāngsì*;

跟 *gēn*.... 类似 *lèisì* konstruksiyalari hamda ularning inkor shakli ishtirokida;

有 *yǒu* fe'li ishtirokidagi konstruksiyalar.

O'zbek tilshunosi A.Xojiyev "Tilshunoslik terminlari lug'atida" o'xshatish quyidagicha keltiradi: "O'xshatish bir predmetning belgi, harakat jihatdan boshqa predmetga o'xshash ekanligini bildiruvchi shakl bo'lib, -dek, -day affiksi yordamida yasaladi: toshdek, ipakdek kabi: Bahor

quyoshining zarrin shu'lasida aksida simobdek yiltirab, oynadek yarqirab oqmoqda<sup>29</sup>".

O'xshatish mazmunidagi konstruksiyalar narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligi, tengligini ifodalab, ushbu guruhga kiruvchi [A 跟 *gēn* B.... 一样 *yí yàng*] konstruksiyasining grammatik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ushbu konstruksiya narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligini ifodalovchi konstruksiyalar qatoriga kiradi. Ushbu konstruksiya A va B, ya'ni ikkita o'xshash bo'lgan predmet yoki holatni taqqoslash uchun qo'llanilib, bunda natijaning teng darajada ekanligini ifodalaydi.

**Asosiy qism.** [A 跟 *gēn* B.... 一样 *yí yàng*] konstruksiyasida, A hodisa yoki holatlarni ifodalasa, A va B taqqoslanuvchi ikki xil narsa 一样 *yí yàng* solishtirish natijasi bo'lib, kesimning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kesimning asosiy komponenti bo'lgan 跟 *gēn* B esa, hol vazifasida keladi. Ba'zida 一样 *yíyàng* dan so'ng sifat, hishayajon ifodalovchi fe'llar yoki fe'lli so'z birikmalarini uchratishimiz mumkin. Bu vaqtda 跟 *gēn* B .... 一样 *yíyàng* sifat va fe'lning holiga aylanadi. 跟 B.... 一样 +sifat/fe'l modelida A qaysidir xususiyati B bilan bir xil ekanligini anglatadi<sup>30</sup>. Masalan:

1. 这个字的声调跟那个字的声调一样。

*Zhègè zì de shēngdiào gēn nàgè zì de shēngdiào yíyàng.*

*Bu ieroglifning ohangi bilan anavi ieroglifning ohangi bir xil.*

<sup>29</sup> Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 140.

<sup>30</sup> 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001. – 页 833.



2. 这间屋子跟那间屋子一样大。

Zhèjiān wūzi gēn nàjiān wūzi yíyang.

Bu xona bilan anavi xonaning kattaligi bir xil.

3. 他跟我一样喜欢孩子<sup>31</sup>。

Tā gēn wǒ yíyàng xǐhuan háizi.

U ham bolani mendek yaxshi ko'radi.

Birinci misoldagi 一样yíyàng gapdagi ikki ohangning bir xilda ekanligini ta'kidlamogda. Ikkinchi misolda esa ikkita xonaning ham hajmi bir xilda katta ekanligi keltirilgan bo'lsa, uchinchi misolda esa uning bolani yaxshi ko'rish darajasi "men" bilan bir xilda ekanligi keltirilgan.

Bundan tashqari ushbu modelda qiyosiy darajani ifodalovchi sifat odatda 高gāo baland, 长cháng uzun, 宽kuān keng, 厚hòu qalin, chuqur, 大dà katta, 多duō ko'p, 矮ǎi past, 短duǎn kalta, qisqa, 窄zhǎi tor, ingichka, 薄báo yupqa, 小xiǎo kichkina sifatleri bilan bir qatorda, 长度chángdù balandlikni, 宽度kuāndù kenglikni, 厚度hòudù qalinlikni, 容积róng jī ko'lamlilikni, 面积miànjī maydonni, 数量shùliàng sanoq miqdorini ifodalovchi so'zlardan iborat bo'ladi. Shu bilan birga ularning antonimlarini ham qo'llash mumkin. Masalan:

这本书跟那本书一样厚,大概都是二百多页<sup>32</sup>。(这明厚度)

Zhèběn shū gēn nàběn shū yíyang hòu, dàgài dōushì èrbǎi duō xié.

Bu kitob bilan u kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan ikki yuz betdan ko'proq.

Quyida 跟....一样konstruksiyasining grammatik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

[跟gēn....一样yí yang] hol vazifasida kelganda, undan so'ng 地de qo'yilishi mumkin. Ayniqsa so'z brikmalarini qo'llayotganimizda. Masalan:

他会跟我们一样地想念祖国。

Tā huìgēn wǒ men yíyàng dìxiǎng niàn zǔ guó.

U ham mendek Vatanini sog'inadi.

[跟gēn .... 一样yí yang] aniqlovchi vazifasida ham kelishi mumkin. Bu vazifada odatda 一样yíyang dan keyin, 的de qo'shimchasi qo'llanilishi shart<sup>33</sup>. Masalan:

还有跟这本一样的字典吗?

Hái yǒu gēn zhè běn yíyàng de zìdiǎn ma?

Yana shu bilan bir xildagi lug'at bormi?

跟gēn old ko'makchisining oldi va ortida joylashgan A va B ot, olmosh bo'lishi bilan bir qatorda, fe'l, sifat va fe'lli so'z birikma hamda sifatli so'z birikma ham bo'lishi mumkin. Masalan:

1. 读跟写一样需要下功夫。

Dú gēn xiě yíyàng xūyào xià gōngfū.

O'qish yozishdek bir xil mehnat talab qiladi.

2. 长跟短怎么能一样呢?

Cháng gēn duǎn zěnme néng yíyàng ne?

Uzun va qisqa qanday qilib bir xil bo'la olishi mumkin?

3. 用钢笔写和用毛笔写一样吗?

Yòng gāngbǐ xiě hé yòng máobǐxiě yíyàng ma?

Ruchkada yozish bilan qalamda yozish bir xilmi?

4. 你来跟他来一样,谁来都能解决问题。

Nǐ lái gēntā lái yíyàng,shuí lái dōunéng jiějué wèntí.

Seni kelishing bilan uni kelishi birdek, kim kelsa ham muammoni hal eta oladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan misollarning birinchisida fe'l, ikkinchi gapda sifat, uchinchi gapda sifatli brikma hamda to'rtinchi gapda fe'lli so'z birikmalarini kuzatishimiz mumkin.

[跟B....一样] konstruksiyasining

bo'lishsiz shakli quyidagicha ko'rinishga ega: [A跟B .... 不一样], [A不跟B .... 一样] bo'lib, [A 跟B....不一样] konstruksiyasiga quyidagicha misollarni keltirishimiz mumkin:

1. 七班的节目跟别班的都不一样,他们跳了一个名族舞。

Qī bān de jiémù gēn bié bān de dōu bù yíyàng, tāmen tiàole yíge míngzú wǔ.

<sup>31</sup> 桂菲. 对外汉语比较句教学研究.

黑龙江大学受社硕士学位论文, 2015年. – 页 9.

<sup>32</sup> 李德津, 程美珍. 外国人实用汉语语. – 北京:

北京语言大学出版社, 2008. – 页 526.

<sup>33</sup> 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京:

商务印书馆, 2001. – 页 835.



Yettinchi guruhning dasturi boshqa guruhlarnikiga o'xshamaydi, ular milliy raqsnini tanlashgan.

2. 他的意见跟我的意见不一样。

Tāde yìjiàn gēn wǒde yì jiànbú yíyàng.

Uning fikri bilan mening fikrim bir xil emas.

Ba'zi vaqtlarda esa 不跟bùgēn....一样yíyàng ko'rinishida ham foydalansa bo'ladi. Bunday gap tuzilishida 跟gēn.... inkor shakli bo'lib xizmat qiladi, 一样yí yang emas<sup>34</sup>. Masalan:

1. 他不跟我一样高,跟我妹妹一样高。

Tā bú gēn wǒ yíyàng gāo, gēn wǒ mèimèi yíyàng gāo.

U men bilan emas, singlim bilan birdek baland.

Bunday gaplarning tasdiq-inkor ko'rinishdagi savol shakli quyidagicha yasaladi:

1. 他的意见跟我的意见一样不一样?

Tā de yìjiàn gēn wǒ de yìjiàn yíyàng bù yíyàng.

Uning fikri bilan sening fikring bir xilmi yo 'qmi?

2. 他跟你一样高不一样高?<sup>35</sup>

Tā gēn nǐ yíyàng gāo bù yíyàng gāo?

Uning bo'yining balandligi seniki bilan bir xilmi yoki yo 'qmi?

E'tibor beradigan jihatimiz shundaki, ikkinchi misolda 他跟你一样高不高tā gēnnǐ yíyàng gāo bù gāo deb bo'lmaydi. Chunki yuqoridagi gapda balandlikning bir xil yoki bir xil emasligi emas, balki baland-pastligi so'ralmoqda. Bunday holatda esa qiyoslash mazmunidagi gap emas, balki oddiy so'roq gapga aylanib qoladi.

Narsa, hodisa yoki holatdagi o'xshashlik yoki farqli tomonlarni ifodalashda shaklan bir xil, mazmunan yaqin bo'lgan, [A跟gēn B 一样yí yang] konstruksiyasi o'rnida kela oluvchi [跟gēn....相同xiāngtóng], [跟gēn...相似xiāngsì], [跟gēn....近似jìnsì],

[跟gēn....类似lèisì] kabi konstruksiyalar ham mavjud.

[A跟B....一样] konstruksiyasiga

ekvivalent sifatida [A跟B ....相同] shaklidan ham foydalanishimiz mumkin. Uning inkor shakli sifatida [跟....不同 (不相同)] konstruksiyalaridan foydalanishimiz mumkin. Masalan:

1. 这个零件跟那个零件的形状相同。

Zhège língjiàn gēn nàge língjiàn de xíngzhuàng xiāngtóng.

Bu ehtiyot qismning unisi bilan shakli bir xil.

2. 他的看法跟我们的看法不同。

Tāde kànfǎ gēn wǒmen de kànfǎ bùtóng.

Uning fikri bilan mening fikrim bir xil emas.

Lekin [A跟B.... 一样]

konstruksiyasidan farqli o'laroq [A跟B.... 相], [跟.... 不同] konstruksiyasi hol vazifasida kela olmaydi. 我跟他相同高wǒ gēntā xiāngtóng gāo, 我跟他不同高wǒ gēntā bùtóng gāo deyish mumkin emas.

Agarda predmet yoki holatning bir xil darajada shu bilan birga ularning o'xshashligini ifodalamoqchi bo'lsak, [跟gēn....相似xiāngsì (近似jìnsì, 类似lèisì)], [跟gēn...差不多chàbudo] konstruksiyalaridan ham foydalanishimiz

mumkin<sup>36</sup>. Masalan:

1. 个故事的情节跟那个故事相似。

Zhège gùshì de qíngjié gēn nàge gùshì xiāngsì.

Bu hikoyaning mazmuni anavi hikoyanikiga o'xshash.

2. 小张的个子跟他差不多。

Xiǎozhāng de gèzi gēn tā chàbudo.

Xiaojangning bo'yi uniki bilan deyarli bir xil.

Yuqorida keltirib o'tilgan konstruksiyaning asosi bo'lmish 跟gēn old ko'makchisini 与yǔ, 和hé, 同tóng kabi so'zlar bilan almashtirilib foydalansa ham bo'ladi. Masalan:

1. 今天才晓得他们的眼光,

全同外面的那伙人一样。

<sup>34</sup> 李德津, 程美珍. 外国人实用汉语语法. - 北京:

北京语言大学出版社, 2008. - 页528.

<sup>35</sup> 桂菲. 对外汉语比较句教学研究.

黑龙江大学受社硕士学位论文, 2015年. - 页43.

<sup>36</sup> 刘月化等著. 实用现代汉语语法. - 北京:

商务印书馆, 2001. - 页838.



*Jǐntiān cái xiǎodé tāmende yǎnguāng, quántóng wàimiànde nà huǒrén yíyàng.*

Bugun hozirgina paydo bo'lgan uning qarashlari, tashqarida turgan ana u kishilarniki bilan bir xil.

2. .... 他们除双手外, 别无长物, 其经济地位和产业工人。

.... *Tāmen chú shuāngshǒu wài , biéwúchángwù, qí jīngjì dìwèi hé chǎnyè gōngrén.*

.... *Ularning ikki qo'ldan bo'lak hech narsasi yo'q, iqtisodiy holati esa ishchilarniki bilan bir xil.*

3. 这些学生和旧式学生也不同, 他们不是过去的干部, 就是未来的干部。

*Zhèxiē xuésheng hé jiùshì xuésheng yěbú xiāngtóng, tāmen búshì guòqùde gānbù, jiùshì wèi lái de gānbù.*

Bu talabalar bilan eskicha o'qigan talabalar birdek emas, ular avvalgi kadrlar emas, balki kelajak kadrlaridir.

4. 他的样子没有多大的变化, 但是服装却与土改时的补钉衣服明显的不同了<sup>37</sup>。

*Tā de yang zīmó yǒu duō dà de biànhuà, dànsì fùzhuāng què yǒu tǔ gǎi shì de bǔ dīng yīfu míngxiǎn de bùtóng le.*

Uni ko'rinishida u qadar katta o'zgarish bo'lmagan, lekin kiyinishi yer islohotlari davridagi yamoqli kiymlaridan farq qilishi ko'rinib turibdi.

Eng muhim e'tibor qaratadigan jihatimiz shundaki, hech qachon 比**bǐ** va 一样**yíyàng** dan birga foydalanish mumkin emas. Masalan:

*Bu ruchka bilan anavi ruchka bir xil.*

这支钢笔跟那支(钢笔)一样。

*Zhè zhī gāngbǐ gēn nà zhī (gāngbǐ) yíyàng.*

×这支钢笔比那支一样。

*Zhè zhī gāngbǐ bǐ nà zhī yíyàng* tarzida tarjima qilish mumkin emas.

Xitoy tilida taqqosni ifodalovchi konstruksiyalar soni ko'pligiga qaramay, ular ichidan faqatgina [A跟B.... 一样]

konstruksiyasi, o'zning grammatik xususiyatlariga ko'ra rang barangliligi bilan ajralib turadi. Faqatgina [A跟B.... 一样] konstruksiyasida inkor elementining gapdagi o'rni konstruksiyaning ma'nosiga tasir etmasligini kuzatishimiz mumkin. Aynan [A跟B.... 一样] konstruksiyasi ekvivalentlarga boyligi bilan ajralib turadi va aynan shu xususiyat uning og'zaki nutqdagi qulayligini ta'minlab beradi.

**Xulosa.** Maqola tahlili natijalari quyidagi xulosalarni keltirib chiqardi:

1. Zamonaviy xitoy tilida qiyoslash mazmunidagi gaplar ikkita katta guruhga ajraladi. Birinchi guruh, sifat va darajaning farqini, baland yoki pastligini ifodalovchi so'z qiyoslash, taqqoslash mazmuniga ega bo'lgan: 比 *bǐ* old ko'makchisi, 不如, 不比, 没有, 越来越 ishtirokidagi konstruksiyalar. Ikkinchi guruh, narsa, hodisa va holat darajalarining o'zaro bir xilligini ifodalovchi o'xshatish mazmuniga ega bo'lgan: 跟 *gēn* old ko'makchisi va (跟.... 一样, 跟.... 相同; 跟.... 相似; 跟.... 近似; 跟.... 类似) 有 *fe'li* ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi.

2. [A跟B 一样] narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligini ifodalovchi konstruksiya bo'lib, A va B ya'ni ikkita o'xshash bo'lgan predmet yoki holatni taqqoslashda, natijaning teng darajada ekanligi ifodalashda qo'llaniladi.

3. Ushbu konstruksiyaning bo'lishsiz shakli: [A跟B... 不一样], [A不跟B .... 一样] bo'lib, inkor elementining gapdagi o'rni konstruksiyaning ma'nosiga tasir etmasligi, uning og'zaki nutqdagi qulayligini ta'minlab beradi.

4. Tasdiq inkor shakli [A跟B 一样不一样] ko'rinishga ega. So'roq shakli esa gapning oxiriga so'roq yuklamasi *ma'ni* qo'yish orqali yasaladi. Ushbu [A跟B.... 一样] konstruksiyasidagi “一样” o'rniga, 相同/相似/近似/类似 so'zlaridan ham foydalanishimiz mumkin.

5. [A跟B 一样] konstruksiyasi orqali taqqos olib borilganda, *de* yordamchi so'zining tushib qolishi ma'no o'zgarishiga va uni qo'llashdagi kamchiliklarni keltirib chiqarish mumkin.

<sup>37</sup> 李德津, 程美珍. 外国人实用汉语语. – 北京: 北京语言大学出版社, 2008. – 页530.



6. Hech qachon 比 va 一样 bitta konstruksiyani tashkil etmaydilar. Xitoy tilida [A比B.....一样] yoki [比.....不一样] kabi modellar mavjud emas. Faqatgina [跟/和/同.....一样] yoki [跟/和/同...不一样] konstruksiyalari mavjud. Xitoy tilida [有...一样] konstruksiyasi ham mavjud emas

7. Old ko‘makchi “跟” o‘rniga, 与, 和, 同 kabi so‘zlar bilan almashtirilib foydalansa ham bo‘ladi. [A跟B.... 一样] konstruksiyasi, o‘zning grammatik xususiyatlariga ko‘ra ekvivalentlarga boyligi, rang barangliligi bilan ajralib turadi. Aynan shu xususiyat uning og‘zaki nutqdagi qulayligini ta‘minlab beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонов Ф.А., Шоабдурахмонов. Ш.Ш., Ҳожиёв А.П. Ўзбек тили грамматикаси. II. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1996. – 450 б.
2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 397 б.
3. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. – Москва: Просвещение, 1992. – 278 с.
4. Драгунов А.А. Грамматическая система современного китайского языка. – Ленинград, 1992. – 250 с.
5. Задоев Т.К., Хуан Шуин. Основы китайского языка. – М.: Наука, 1996. – 245 с.
6. Карцевский С. Сравнение. Вопросы языкознания. №1. – Москва: Муравей, 1976. – 180 с.
7. 刘月化等著. 实用现代汉语语法. – 北京: 商务印书馆, 2001. – 840 页.
8. 李德津, 程美珍. 外国人实用汉语语法. – 北京: 北京语言大学出版社, 2008. – 652 页.
9. 戴雪梅, 张若莹. 实用汉语语法三百点. – 北京: 新世界出版社出版, 1999. – 240 页.
10. 故播刘. 实用现代汉语语法. – 北京: 新世界出版社出版, 2003 年. – 455 页.
11. 刘昊博. A Syntactic Analysis of the Bi Comparative Construction. – 四川: 四川外国语大学硕士学位论文, 2013 年. – 78 页.
12. 苗东霞编著. HSK 考前强化语法. – 北京: 北京大学出版社, 2010 年. – 175 页.
13. 杨捷, 杜欣. 新HSK 模拟题集. (4/5 级). – 北京: 中央编译出版社, 2012. – 214 页.

**Maxamadtoirova A. Expression of equal degree in the Chinese language by [A 跟GĒN B... 一样YÍ YÀNG] construction.** In modern Chinese, there are many ways to express differences or similarities between things and events, situations and qualities, and also levels, to add they are mainly used to compare differences in high or low a situation. At the same time, it helps to make the speech stylistically brief and fluent. The words in the context of comparison are expressed in Chinese by the term 比较句 bǐjiào jù. If we look at the analysis of this word, 比较 bǐjiào compares 句 jù which gives meaning of the sentence. There is no equivalent of the words analogy in Chinese language for the Uzbek language, all of which are called compression 比较句 bǐjiào jù.

**Махаматтоирова А. Выражение степени сходства в китайском языке посредством конструкции [A 跟GĒN B... 一样YÍ YÀNG].** В современном китайском языке существует много способов выражения различия или сходства между предметами и явлениями, их свойствами или качественными особенностями. В основном они используются для сопоставления высокой или низкой степеней различия между сравниваемыми объектами. В то же время они помогают сделать речь стилистически выдержанной и лаконичной. Сравнительные предложения в китайском языке выражаются термином 比较句 bǐjiào jù. Разобрав это понятие, можно увидеть, что конструкция 比较 bǐjiào выражает сравнение, а 句 jù является предложением. В китайском языке отсутствуют прямые эквиваленты узбекским словам, таким как сравнение, схожесть, сопоставление и все это передается одной сравнительной конструкцией 比较句.